



GLOBALLASHUV NATIJASIDA MOLIYA BOZORLARNI RIVOJLANAISHI.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ.

GLOBALIZATION AND THE DEVELOPMENT OF FINANCIAL MARKETS

Xolmatov Diyorbek Usmonovich.

UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY

«Iqtisodiyot» kafedrası assistant.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuvning zarurati mamlakat tashqi savdodasida hamkor davlatlarning ahamiyati va integratsiyaning zaruratini o'zida aks ettirmoqda. Shu nuqtai nazardan, globallashuvning o'sish sur'atlari, savdo munosabatlarni erkinlashtirish bilan birga kapital va ishchi kuchi xarakatini soddalashtirilishida integratsion jarayonlarning rolining dolzarbligi tog'risida fikr yuritamiz.*

Аннотация. *В данной статье отражается необходимость глобализации, значение стран-партнёров в внешней торговле и важность интеграционных процессов. С этой точки зрения обсуждаются темпы роста глобализации, либерализация торговых отношений, а также актуальность интеграции для упрощения движения капитала и рабочей силы.*

Annotation. *This article reflects the necessity of globalization, the significance of partner countries in foreign trade, and the importance of integration processes. From this perspective, we discuss the dynamics of globalization growth, the liberalization of trade relations, and the relevance of integration processes in facilitating the movement of capital and labor.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, Integratsiya, Depozitlar, Veksellar, Valyuta, Aktsiya, Obligatsiya, Derivativ (hosilaviy qimmatli qog'ozlar), sug'urta bozorlari.*

Ключевые *Глобализация, Интеграция, Депозиты, Векселя, Валюта, Акции, Облигации, Деривативы, Страховые рынки.*

Keywords. *Globalization, Integration, Deposits, Bills of Exchange, Currency, Shares, Bonds, Derivatives, Insurance Markets.*

KIRISH

Globallashuv – bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir[1].



Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog‘langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog‘liqligi hisoblanadi. Shu asosida yagona jahon tarmog‘i, bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyot va uning infratuzilmalari shakllanmoqda, ko‘p asrlar davomida xalqaro munosabatlarning asosiy xarakteri bo‘lmoqda. Globallashuv jarayoni bu davlat tomonidan shakllantirilgan bozor tizimlari evolyutsiyasining natijasidir.

Moliya bozori bo‘sh mablag‘larni safarbar etib, ularni moliyaviy resurslarga,

aholi qo‘lidagi harakatsiz pulni daromad keltiruvchi manbaga aylantiradi. Depozitlar, veksellar, valyuta, aksiya, obligatsiya, derivativ (hosilaviy qimmatli qog‘ozlar) va sug‘urta bozorlarini o‘z ichiga oladigan moliya bozori odatda iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Moliya bozorini taraqqiy toptirish, raqobat muhitini yaxshilash, moliyaviy boshqaruvning yangi turlarini qo‘llashga ko‘maklashish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga investitsiyalarni jalb qilish bilan birga qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy muammolarni ham hal etishga xizmat qiladi.

Moliya bozori o‘z ichiga quyidagi segmentlarni oladi :

Ssuda (bank va boshqa kredit tashkilotlari kapitallari) bozori;

Fond (Qimmatli qog‘ozlar) bozori;

Valuta (Horiijiy valyuta) bozori;

sug‘urta (Risklarni himoya qilish) bozori.

Moliya bozori iqtisodiyotda quyidagilar mavjud bo‘lgandagina samarali faoliyat ko‘rsatishi mumkin:

mulchilik tizimi;

investitsiya uchun mo‘ljallangan yetarli moliyaviy resurslar, mablag‘lar va iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta‘minlangan moliyaviy instrumentlar; talab va taklifning ob‘ektiv mutanosibligi;

moliya bozori infratuzilmasining samarali faoliyati;

bozor qonunlari, tamoyillari va qonunchiligining hukm surishi;

moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik va xavfsizlik, risklaming bashoratliligi.

Moliya globallashuvi – bu moliyaviy bozorlarning xalqaro darajada o‘zaro bog‘lanishi va kapitalning erkin harakatlanishi jarayoni. Ushbu jarayonda fond

bozorlarining ro‘li juda muhim, chunki ular global iqtisodiy o‘rishni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.



So'nggi vaqtlarda Jahon Savdo Tashkiloti (JST), YevroOsiyo iqtisodiy ittifoqi

(YeOII) haqida, unga mamlakatimizni qo'shilish qo'shilmaslik masalalari, umumanXalqaro ilmiy va amaliy-texnik anjuman maqolalar to'plami olganda xalqaro iqtisodiy integratsiyalarning foyda va zararlari xususida turlicha qarashlar paydo bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan globallashuv va so'nggi kuzatuvlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqaro savdo, moliya, kapital va kreditlar hamda axborot oqimi, shuningdek, integratsiyalashgan bozorlarning kengayishi va tobora chuqurlashi yuz bermoqda.

Iqtisodiy globallashuv – bu tarixiy jarayon bo'lib, inson kashfiyotlari va texnologik taraqqiyotning natijasidir. U jahon iqtisodiyotida integratsiyalashuv jarayonlarining jadallik bilan o'sib borishini (xususan, savdo va kapital oqimlari orqali) anglatadi. Bu tushuncha ba'zan insonlar (ishchi kuchi) va ilm-fanning (texnologiya) xalqaro hududlar bo'ylab harakatini ifodalashda ham ishlatiladi. Bundan tashqari, globallashuv tushunchasi keng madaniy, siyosiy va iqtisodiy holat bilan bog'liq o'lchovlarni ham qamrab oladi. Bu tushunchaning ishlatilishi XX asrning 80- yillarida ommaviy tus olgan bo'lib, u o'zida xalqaro o'tkazmalarni amalga oshirishni soddalashtiruvchi va tezlashtiruvchi texnologik imkoniyatlarni aks ettirgan. U inson iqtisodiy faoliyatining turli darajalarida asrlar davomida amal qilib kelgan o'sha bozor kuchlarining[1] milliy chegaralarni e'tiborga olmay uzluksiz kengayishini anglatadi.

Bozorlar raqobat va ishchi kuchining ixtisoslashuvi orqali samaradorlikni rag'batlantiradi, ya'ni insoniyat imkon qadar samaradorlikka intiladi. Global bozorlar insoniyatga jahon bo'ylab ko'proq va kattaroq bozorlardan foydalanish borasida kengroq imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu shuni anglatadiki, ular yanada ko'proq kapital oqimi, texnologiya, arzon import va yirik eksport bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Lekin bozorlar samaradorlikning oshishidan ko'riladigan manfaatlarni barcha uchun teng taqsimlanishini kafolatlay olmaydi.

Globallashuv kechagina sodir bo'lgan voqelik emas. Ba'zi tahlilchilar jahon iqtisodiyoti 100 yillar oldin ham bugungi kundagidek globallashganligini e'tirof etadilar.

XIX asr oxirlariga kelib, milliy daromad tarkibidagi tashqi savdo oqimining ulushi deyarli bugungi kundagidek edi, zero, kapital, transferlar nisbatan yirikroq, insonlarning ko'chib o'tishi darajasi immigratsiyaga to'siqlarning mavjudligiga qaramay bugungi kunga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Lekin shuni tan olishimiz kerakki, bugungi kunda tijorat va moliyaviy



xizmatlar avvalgi davrdagiga nisbatan ancha taraqqiy etgan va chuqur integratsiyalashgan.

Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi?

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayoni hozirgi bosqichining asosiy farqli xususiyati zamonaviy elektron kommunikatsiyalari tufayli moliya bozorlarining yanada integratsiyalashganligidir. Globallashuv XX asrning oxirgi o'n yilligida hukmron kuchga aylandi va o'ziga xos yangi xususiyatlar kasb etdi:

- yangi bozorlar (ya'ni zamonaviy vositalar bilan tinimsiz ishlovchi o'zaro bog'langan moliya bozorlari, global iste'mol mollari bozorlari, elektron-tijorat va sh.k.);

- yangi moliyaviy bozor ishtirokchilari (ya'ni multimilliy korporatsiyalar, Jahon savdo tashkiloti, hududiy bloklar);

- yangi qoidalar (ya'ni savdodagi ko'p tomonlama kelishuvlar, inson huquqlari va

global muhit bo'yicha konvensiyalar);Xalqaro ilmiy va amaliy-texnik anjuman maqolalar to'plami

- yangi aloqa vositalari (ya'ni, telefon, faks, elektron pochta).

Bundan tashqari, globallashuv tovarlar va kapitallarning harakatidagi ob'yektiv va sub'yektiv to'siqlarning olib tashlanishi natijasida davlatlararo aloqalarning rivojlanib borishini anglatadi.

Ob'yektiv to'siqlarning bekor qilinishi dengiz, havo transporti va aloqa xarajatlaridagi pasayish tendensiyalarida o'z ifodasini topdi. Dengiz va bandargoh

xarajatlari 1920 va 1990 yillar orasida taxminan 60 foizga qisqardi.(1) Havo transporti xarajatlarida yanada keskinroq kamayish kuzatildi va sayohat vaqti ham sezilarli darajada qisqardi.

Inflyasion targetlash rejimini qo'llash makroiqtisodiy barqarorlik va aholi faravonligini ta'minlashning zaruriy sharti Ayni paytda, kapital oqimi ustidan nazorat qilishga barham berilmoqda, xususan, Bretton Vuds qat'iy valyuta kursi tizimiga 1971yillarda nuqta qo'yilgach, yetakchi valyutalar erkin suzish rejimiga o'tdi, Yaponiya,Daniya, Ispaniya kabi yetakchi davlatlarda kapitallarning harakati bo'yicha mavjud cheklovlar to'liq bekor qilindi.

Umuman olganda, globallashuv xususiy sektorlar va hukumatlarni xalqaro

raqobatga chorlovchi global iqtisodiy integratsiyalashuvni texnologik va siyosiy jihatdan harakatlantiruvchi jarayon hisoblanadi.

Bu yerda raqobatning turli darajalarini yoki sohalarini farqlash lozim:

- xususiy sektorda (mikroiqtisodiy darajada), global iqtisodiy integratsiya nafaqat moliyaviy, balki tovarlar va mehnat bozorida ham o'z samarasini



beradi, ya'ni sotuvchi narxlarining (tannarx va bozor bahosi o'rtasidagi farq) pasayishiga hamda ish haqini ortiqcha to'lash oqibatida vujudga keladigan xarajatlarning qisqarishiga olib keladi;

- davlat sektorida (makroiqtisodiy darajada) global iqtisodiy integratsiya yangi davlatlarning (raqobatchilar) global bozor ishtirokchisiga aylanishi tufayli jahon bozoridagi raqobat keskinlashadi.

Shunday qilib, globallashuv mamlakatlarni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xususan, soliqlarni kamaytirish, davlat qarzini qisqartirish va inflyasiyani jilovlash orqali xalqaro raqobatbardoshlikni rag'batlantirishga undaydi. Xulosa qilib aytganda, jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayoni ob'yektiv tarixiy jarayon bo'lib, o'zining ijobiy va salbiy jihatlariga egadir. Uning ijobiy jihatlaridan xalqaro Moliya bozorlari va valyuta munosabatlarini tartibga solish jarayonida oqilona foydalanish kapitallar, valyutalar va tovarlar harakati ko'lamining kengayishiga muhim zamin yaratadi.

1. Fond bozorlarining moliya globallashuvdagi asosiy vazifalari

1.1. Xalqaro kapital oqimlarini boshqarish Fond bozorlarining rivojlanishi xorijiy investorlarni jalb qilishga yordam beradi. Korporativ va davlat obligatsiyalarining global bozorlarda muomalada bo'lishi, davlat va xususiy sektor uchun yangi moliyaviy resurslarni yaratadi. Misol: O'zbekistonning yevroobligatsiyalar chiqarishi xorijiy investorlarni jalb qilishga xizmat qiladi.

1.2. Kompaniyalarga global darajada moliyaviy resurs olish imkoniyatini yaratish Xalqaro ilmiy va amaliy-texnik anjuman maqolalar to'plami Yirik kompaniyalar xalqaro fond birjalarida IPO o'tkazish orqali chet el kapitalini jalb qilishi mumkin. Misol: Tesla, Apple, Alibaba kabi kompaniyalar xalqaro investorlarga aksiyalarini taklif qiladi.

1.3. Moliyaviy risklarni taqsimlash Global investitsiyalar diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytiradi. Investorlar bir mamlakat iqtisodiy inqirozga uchrasa, boshqa bozorlarga o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol: AQShdagi investor Xitoy yoki O'zbekiston fond bozorlariga investitsiya kiritib, risklarini taqsimlashi mumkin.

1.4. Valyuta va foiz stavkalari barqarorligini oshirish

Fond bozorlari orqali xalqaro obligatsiyalar chiqarilishi valyuta zahiralarini

oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro investitsiyalar valyuta bozorlariga ta'sir qilib,

kurslarning keskin o'zgarishining oldini oladi.

2. Fond bozorlarining globallashuvdagi ijobiy va salbiy jihatlar

2.1. Ijobiy jihatlar

Kapital harakatining erkinlashuvi – investitsiyalar bir mamlakatdan ikkinchisiga oson o'tadi.



Innovatsiyalarni moliyalashtirish – yirik texnologik kompaniyalar uchun global investitsiya imkoniyatlari yaratiladi.

Moliya resurslarining samarali taqsimlanishi – investitsiyalar yuqori rentabellikga ega loyihalarga yo'naltiriladi.

2.2. Salbiy jihatlar

Moliya inqirozlari tarqalishi – bir mamlakatdagi inqiroz global moliyaviy bozorga ta'sir qilishi mumkin.

Xorijiy investorlarning haddan tashqari ta'siri – ba'zi davlatlar chet el kapitalidan ortiqcha qaram bo'lib qolishi mumkin.

Spekulyativ kapital harakatlari – qisqa muddatli investorlar bozorlarga bosim

o'tkazib, narxlarning keskin o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa. Globallashuvni kapital bozorining xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi:

1.Davlatlar obligatsiyalari fond birjasida joylashtirish imkoniyati, kompaniyalar o'z ulushlarini dunyoning mashhur fond bozorlarida IPO tariqasida joylashtirishlari, chet el investorlariga fond bozorini ochish choralari yaratiladi. Fond bozorlari globallashgan moliya tizimining bir qismi bo'lish orqali investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2) "QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI TO'G'RISIDA" qonun Toshkent sh 2008-yil 22-iyul O'RQ 163 son
- 3). "AKSIYADORLIK JAMIYATLARI VA AKSIYADORLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TO'G'RISIDA"GI O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014-yildagi O'RQ-370-son.Xalqaro ilmiy va amaliy-texnik anjuman maqolalar to'plami
- 4) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, 2020-yil 6-iyuldagi yangi tahrir
- 5).Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Jahon banki hisobotlari.
- 6). O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy hisobotlari (www.cbu.uz).
- 7). "Global Financial Stability Report" – IMF tomonidan har yili chop etiladigan xalqaro moliya bozorlari bo'yicha tahliliy hujjatlar.
- 8). O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (www.stat.uz).
- 9).Bloomberg (www.bloomberg.com) – jahon moliya bozorlari va investitsiyalar haqida tahlillar.
- 10).World Bank (www.worldbank.org) – xalqaro moliyaviy rivojlanish bo'yicha hisobotlar